



O'ZBEK, FRANSUZ VA INGLIZ TILLARI EMOTIV FRAZELOGIZMLARIDA USLUBIY BO'YOQDORLIK

Muallif: Shirin Eshmurodova ¹

Affiliyatsiya: Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistri¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15167772>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada emotiv frazeologizmlarni uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Unda frazeologizm a) frazeologizmga ifodalangan ma'no obrazning denotativ mazmunidan anglashiladi; b) emotiv frazeologizm ma'nosi etimologik tahlillar orqali tahlil etiladi.

O'rganilayotgan tillaridagi emotiv frazeologik birliklar ijobiy va neytral konnotatsiyali hisoblanadi. Kalambur, so'z o'yini asosida stilistik fonetik vositalar, ya'ni ohangdoshlik va anafora fonetik uslub ko'proq qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: emotiv frazeologizm, lingvomadaniy, emotsional-ekspressiv, konnotativ ma'no, ijobiy, salbiy, neytral ko'chma ma'no, baynalminal

KIRISH

O'zbek, frantsuz va ingliz tillaridagi emotiv frazeologik birliklarning semantik-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari shu kungacha chog'ishtirma tadqiqot ob'ekti sifatida tanlanmagan. Bir-biridan muayyan til oilasiga mansubligi, ijtimoiy-madaniy-milliy turmush tarzi jihatidan tubdan farqlanuvchi ikki qutb – g'arb va sharq madaniyatini o'zida aks ettirgan o'zbek, frantsuz va ingliz frazeologizmlarini chog'ishtirish, ularning umumiy va alohidaliklarini aniqlash, shuningdek, yangiliklarni o'rganish uchun g'arbga intilayotgan sharqliklar hamda asori-atiqalariga, tarbiya asoslariga mahliyo bo'lib sharqqa tomon siljiyotgan g'arblıklar nutqida qo'llaniladigan frazeologik birliklarning lingvomilliy, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish ham qiziqarli, ham foydali bo'lib, bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu magistrlik dissertatsiyasini yoritishda bir nechta ilmiy va lug'atlarida ifodalangan badiiy asarlardan olingan misollarga tayanildi. Manbalarda qayd etilishich, frazeologiyaning fan sifatida shakllanishi frantsuz tilshunosi Sh.Balli [1] nomi bilan bog'liq. Shuningdek, frazeologizmlarning emotiv xususiyatlari tadqiqi bilan shug'ullangan V.G.Gak [2], V.I.Shaxovskiy [11], A.Lehrer [12] kabi olimlar; o'zbek tili frazeologiyasi tadqiqotchilari Sh.Rahmatullayev [8], A.E.Mamatov [4], B.Yo'ldoshevlar [3] shular jumlasidandir.

NATIJALAR

Mazkur ilmiy ishning asosiy masalasi o'zbek, fransuz va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili turli xalqlar mentalitetining o'ziga xosligini emotiv frazeologizmlar orqali aniqlash va ularni ijobiy va salbiy emotiv frazeologizmlarga ajratish orqali "hissiy holatni ifodalovchi" frazeologizmlarning yadro-pereferiyasi aniqlandi.

MUHOKAMA

Konnotativ ma'no uslubiy bo'yoqdorlikka ega til birligi bo'lib, obrazlilik vositasi sifatida so'zlovchi nutqiga yorqin emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik baxsh etadi. A.I.Fyodorov frazeologizmlarning ekspressivlik imkoniyatini ularning konnotativ ma'nosi bilan bog'laydi, uningcha frazeologizmlar yangi bir hodisani nomlash uchun emas, balki ilgaridan tilda mavjud bo'lgan predmet, hodisa, harakat, holatni konkretlashtirish va obrazli-emotsional baholash uchun yaratiladi. Bu birliklar, shubhasiz, tilning ekspressiv funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Aynan, bu frazeologik belgining konnotativ ma'nosi uning alohida mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi. A.I.Fyodorov frazeologik birliklarning konnotativ ma'nosi xususidagi fikrini davom ettirib, quyidagi faktlarni keltiradi: "...frazeologizmlarning so'zdan farqli o'laroq, metaforik, metonimik va qiyosiy tiplardan iborat obrazli frazeologik ma'nosi denotat deb ataladi va uning konnotativ xarakteristikasi frazeologik birlik ma'nosiga o'tadi" [10].

Frazeologik birlik tarkibidagi dominant so'z frazeologizm hosil qilishda denotativ ma'noga ega emas, balki ibora ifoda etgan ramziy ma'noga asoslanadi. Demak, frazeologimlarda universallik belgilarini quyidagicha izohlash mumkin: 1) frazeologizmlar semantikasini ifoda etgan obrazlar bir-biriga yaqin; 2) baynalmilal frazeologizmlar tuzilishga ko'ra turli-tuman

Psixologik planda konnotatsiya insonning ob'ektni bilib olishga qiziqishini ifodalaydi. Bunda konnotatsiya aqlan baholovchi, hissiy-emotsional, shuningdek, hissiy obrazli xarakterga ega bo'ladi. Konnotatsiyaning ratsional baholovchi va hissiy emotsional tiplariga insonning butun hissiy tajribalarini pragmatik kategoriyalar ostida o'tkazishga intilishi kiradi, ya'ni ikki yoqlama ma'nolar tuzilishi har qanday o'zlashtirilgan ob'ekt shkalasiga ko'ra ijobiy va salbiy ma'nolarga ega bo'ladi, shuningdek, inson ichki ruhiyati bilan bog'liq emotsional hodisalarni ifodalaydi. Asoslanmagan otlarning ma'nolari bilan xarakterlanuvchi bevosita ifodalangan konnotatsiya tipologik jihatdan farq qiladi.

Frazeologik birlik asosidagi obrazning etimologik ma'lumoti obrazni to'liq tiklaydi va iborani tushuntira olsa, kodlanmagan konnotatsiya darajasiga erishadi [6]. Milliy madaniy belgiga ega ko'pchilik frazeologizmlar ijobiy konnotatsiyaga ega. Universal yoki baynalmilal frazeologizmlar salbiy belgiga ega ekanligi bilan izohlanadi, ma'lumki, bunday o'zga madaniyatga oid iboralar, odatda, biror bir salbiy, notanish, o'rganilmagan voqea, hodisa nomi bilan goh kinoya, goh piching, goh qochirim tarzida bog'lanadi, o'zining madaniyati esa ijobiy baholanadi.

Fransuz, o'zbek va ingliz tillarida universal yoki baynalmilal frazeologik birliklar orasida negativ konnotatsiyalar mavjud. Bunday madaniy qarama-qarshiliklar qiyoslanayotgan mamlakatlarning tarixiy madaniy hayoti to'g'risida axborot beradi. Yu.M.Lotman fikricha, o'zimizniki, madaniy, xavfsiz tushunchalari asosida aniqlanuvchi

makon, ularning begona, dushman, xavfli, tartibsiz makonga qarama-qarshi turadi [5]. Yu.S.Stepanov ta'kidlaganidek, o'ziniki-o'zlashtirma iboralarni qarama-qarshi qo'yish turli shakllarda butun madaniyatning ich-ichiga singib ketadi va har qanday jamoaviy, ommaviy, milliy dunyoni his etishning bosh kontseptlaridan biri sanaladi[9].

Ingliz frazeologik birliklarida negativ konnotatsiya 60%ni tashkil etadi, masalan, *jackass from Valais – tentak, aqlsiz, ahmoq; gunpowder and heresy came out of Germany – to'p uchun porox va bid'at Germaniyada paydo bo'lgan; make a call to qn – aldamoq, boplamoq, firib bermoq; the treacherous Albion – tayyor Albion; naples sickness (og'zaki) – zahm; going to Damascus – to'g'ri yo'ldan bormoq; haqiqiy e'tiqodni qabul qilmoq; a friend of Monomotapa – haqiqiy do'st; winning Peru – to'satdan boyimoq).*

O'rganilayotgan frazeologizmlarni tadqiq etilayotgan tillar hududidan uzoqligiga ko'ra orasida sezilarli farq mavjud: frantsuz tilida ijobiy va salbiy konnotatsiya 56 % ni tashkil etadi.

O'zbek tilida negativ konnotatsiyali frazeologizmlar ko'proq uchraydi.

Mard bo'lsang, Eskiyo'vada hangra. Eskiyo'va so'zi (Toshkentning eng katta bozori joylashgan joy) gavjum joy ma'nosida ishlatilgan, iboraning ma'nosi metaforik obrazga asoslangan.

Quyidagi maqollarda ham metaforik ma'no implitsit tarzda namoyon bo'lgan: Pashsha g'ing-g'ing etadi, Marg'ilonga yetadi. Xira, beti qalin odamlarga nisbatan achchiq kinoya tarzida ishlatiladi. *Yeyishing sholg'omu, yotishing Marg'ilonning sirli saroyi; Varianti: Yeyishing kepak, kiyishing ipak; Buxoroda nonni yotib yeydi, Beva xotinga Buxorodan it huradi, Qo'qonda jonim-jonim deb joningni oladi* kabi xalq so'zlashuviga xos frazeologik birliklarning avtostereotiplari tilning uslubiy bo'yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek, frantsuz va ingliz tillarida aksariyat frazeologizmlar madaniy uslubiy vosita sanalgan kalambur yoki so'z o'yini yordamida hosil bo'ladi. Kalamburlarni tushunish uchun madaniy axborotni aslidagidek qayta tiklash zarur. Bunday to'qima toponimlarning tabiiy toponimlardan farqi ob'ektni tavsiflashdan iborat. Ko'chma ma'no metafora hodisasi tufayli yuz beradi. Kalambur, turg'un so'z birikmasi yasovchilik xususiyatiga ko'ra eng mahsuldor uslubiy vosita hisoblanadi. Kalambur oddiy so'zlashuvda keng qo'llaniladi, shuningdek, yozuvchilar asarlarida undan muhim obrazli va ekspressiv-emotsional ta'sirchan vosita sifatida foydalanishadi[13].

Frazeologizmlarning so'z o'yini asosida yasaliş an'anasi tilda avvaldan mavjud. Kalamburning keng qo'llanilishi milliy xarakterdan tashqari frantsuz tilining "ruhi"ni, uning xarakterli "o'ziga xosligi"ni ko'rsatadi.

A.G.Nazaryan kalambur frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi. Bular quyidagilar:

1. Frazeologizmlar, komponentlaridan birining ikki tomonlama ma'nosi asosida quriladi (*passer l'arme à gauche*).

2. Frazeologizmlarning omonimik komponentlaridan birining o'rni almashadi (*reasoning like a drum* so'zma-so'z. baraban singari fikrlamoq; ma'nosi: noma'qul gap aytmoq, bema'ni gaplar gapirmoq; *raisonner* (fikrlamoq), *résonner* (yangramoq).

3. Kalambur frazeologizmlar atoqli otlar va nomlarning ikki ma'noligi mavjud yoki o'ylab topilgan ma'nosi asosida qurilgan[7].

Ular orasidagi ikki xillikni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) frazeologik birlik so'z va atoqli otning (ko'pincha, antonimlar) ohangdoshligi asosida quriladi, ular, xususan, to'qima birliklardir: ingliz tilida *saint Nitouche* – so'zma-so'z. *Nitush*; *ma'nosi*: *hazil, gap ko'tarmaydigan odam, jizzaki* (*Nitouche* = *n'y touche*) *coffee of Saint Claire* – so'zma-so'z. *muqaddas Klara kofesi*; *ma'nosi*: *uncha achchiq bo'lmagan kofe* (*muqaddas Claire ismi clair(e) yorug' sifati bilan ohangdosh*[13].

b) frazeologik birlik so'z va toponim to'qima toponimlarning o'zaro ohangdoshligi asosida quriladi: *go to Crevant* – (so'zma-so'z. *Krevanga jo'namoq*) *ma'nosi*: *vafot etmoq*. *Crever/o'lmoq* fe'lidan *Crevant* soxta toponimi hosil bo'lgan; *going to Niort* – (so'zma-so'z. *Niorga jo'namoq*) *ma'nosi*: *qat'iy rad etmoq*. Frantsuz departamentining bosh shahri Niort deb nomlanadi, ibora nier/rad etmoq fe'lidan yasalgan[13].

Ingliz tilida so'z o'yini, tovush o'xshashligi yoki qo'sh ma'nolarga asoslangan ko'plab frazeologik birliklar mavjud, masalan 1) *time flies like an arrow; fruit flies like a banana* – *birinchi ma'nosi*: *vaqt oqar daryo; ikkinchi ma'nosi*: *hasharotlar bananlarni yaxshi ko'radilar*; 2) *I used to be a baker, but I couldn't make enough dough* – *novvoy bo'lsam ham, uyimda urvoq yo'q, "Dough" so'zi ham xamir ham pul ma'nosini anglatadi*; 3) *A bicycle can't stand on its own because it's two-tired* – *velosiped o'zicha tikka tura olmaydi, chunki u juda charchagan* – *"Two-tired" so'zi "too tired" (nihoyatda charchagan so'zi bilan so'z alliteratsiya hosil qilgan), lekin ikkita g'ildirakka ulangan (two tires)*; 4) *Writing with a broken pencil is pointless* – *singan qalamda yozish befoyda* – *"Pointless" "ma'nosiz" va "uchsiz" (point – qalam uchi) so'zlari alliteratsiyasi ro'y bergan*.

Frantsuz, ingliz tillarida so'z o'yini asosida o'ylab topilgan frazeologik birliklar ham uchrab turadi: frantsuz tilida *marquis d'Argencourt qashshoq, kambag'al baron* (so'zma-so'z.: *markiz Arjankur*). Idiomaning asosida *Argencourt* – to'qima geografik nom va *à court d'argent* iborasining talaffuzi o'xshashligiga asoslangan so'z o'yini yotibdi. *Marquis of the Flat Purse* (*Flat Purse* – *o'sh hamyon*) iborasi ham o'xshash so'z o'yini asosiga qurilgan; *pion of Blanchimont* – (so'zma-so'z.: *Blanshimon vinosi*) oq vino. *Blanchimont* – *montagne blanche* so'zidan to'qilgan bo'lishi mumkin. *Pivois* – *vinon* nomi, uning bunday atalishiga sabab, uzum g'uddaga o'xshaydi, dialektda bunday meva qarag'ay g'uddasi deb atalgan. O'tmishda ko'pgina qahvaxonalarda qarag'ay g'uddasi nomli yorliq osiqlik turgan. Boshqa tadqiqotchilar *pivois* bu sallagul, piongulning qizil rangiga qiyosan olingan, deb hisoblaydilar; *going to Dormillon* – (so'zma-so'z.: *Dormiyonga bormoq*) *ma'nosi*: *uxlagani yotmoq*. *Dormillon* so'z o'yini asosida qurilgan –frantsuz tilidagi *dormir* (uxlamoq) so'zidan geografik nom to'qilgan[13].

Shu tariqa so'z o'yini qilish frantsuz frazeologiyasi uchun eng xarakterli belgilardan biridir. Bu so'z o'ynining o'ziga xosligi frantsuz tili va frantsuzlarga xos milliy ruhiyatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Sh.Balli ta'kidlaganidek, "...so'zlarning va bo'g'inlarning noto'g'ri bo'linishi kalamburni hosil qiladi; ular, ayniqsa, frantsuz tilida osongina paydo bo'ladi. Bu esa tasodifiy emas, kalambur hosil bo'lishining asosiy sababi qisqartirilgan iboralardir"[1].

Fikrimizcha, frantsuz frazeologiyasida geografik nom kalamburlari va so'z o'yinlari frantsuzcha yumoru hazilga moyillik hisini yorqin aks ettiradi. Frantsuz xalqining bu milliy xususiyati zamonaviy frantsuz tilidagi kalambur (so'z o'yini) asosida qurilgan frazeologizmlarda aniqroq voqelanadi.

O'zbek tilida kalambur frazeologizmlar ikki xil usulda hosil bo'ladi:

1) alliteratsiya uslubda, ya'ni undosh tovushlar o'xshashligi asosida[13]:

Qo'hi Qof – yetib borish mushkul bo'lgan, kelib chiqishi etiqodiy tushuncha bilan bog'liq afsonaviy tog'. Bu so'z ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklar xalqning jonli tilida faol qo'llanilishi bilan shu guruhga kiruvchi boshqa toponim komponentli frazeologizmlardan farq qiladi. Yomon lof desa, ola Qof deydi; Qof – butun yer yuzini o'rab olgan afsonaviy tog'; Turum tog'i abadiylik, doimiylik, barqarorlik ma'nolarini bildiradi. U Arabistondagi Turi sino tog'i nomidan yasalgan bo'lishi ham mumkin. Yotib yeganga Turum tog'i ham chidamaydi. Varianti: Yotib yeganga tog' ham chidamaydi.

2) anafor – fonetik uslubda, ya'ni so'z boshida bir xil tovushning takrorlanishi natijasida hosil bo'lgan hamda qofiya va uslubiy takror ohangdorlikka asoslanib yasalgan real nomlar bilan bog'liq frazeologik birliklar: *Yomon somonxona kuydi desa, Samarqand kuydi, deydi; Otboshi, Arpa yerinda horidi ot, Ot otang bo'lsa, qoziqni qoq-da yot (Hozirgi Qozog'iston hududida Otboshi, Norin, Arpa degan joylar bor); Oq qoptol ot Otboshi o'tin o'tlamas (Otboshi – joy nomi. Otning egar, jazliq qo'shiladigan – yelkasi "qoptol" deyiladi) kabi alliteratsiya uslubiy hodisasidan foydalanib yasalgan. Yaxshi ot kelar Jizzaqdan, Qo'shsa kelar uzaqdan. Bunda Jizzax va uzoq so'zlar qofiya va shevaga moslab Jizzaq, uzaq deyilgan. Jizzax o'zining eng zotdor otlari bilan azaldan mashhur bo'lib kelgan; Xonqalining boyini, Xivalining kambag'alini bilib bo'lmaydi; Shovotdan sharillab o't; Kayvoni kerak bo'lsa Gurlanga bor; Xonqaga manzirat qil kabi iboralar shular jumlasidan.*

O'zbek tilida frazeologik birlik tarkibidagi komponentlarning hosil bo'lishida fonetik o'zgarishlarning o'ziga xosligi tilning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etadi.

XULOSA

Xulosa shuki, tilning frazeologik fondi, xususan, fonetik uslubiy vositalar orqali hosil bo'lgan frazeologizmlar madaniyat va xalq mentaliteti xususidagi eng qimmatli manba bo'lib, ularda xalqqa tegishli bo'lgan rivoyatlar, urf-odatlar, an'analar, diniy marosimlar, odat, axloq, xulq-atvor va hokazolar o'z aksini topadi. Frazeologizmlarda hamisha xalq dunyoqarashi, o'z davrining g'oyalari, ijtimoiy qurilishi bilvosita tarzda aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С.241.
2. Гак В. Г. Эмоции и оценки в структуре высказывания // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. – 1997. – № 3. – С.87 – 93.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ, 2013. – Б.116-120.
4. Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике –Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Лотман Ю. М. Внутри мыслящих миров: Человек – текст – семиосфера – история . – М.: Энциклопедия, 1999. – С.23.
6. Назарян А.Г. Почему так говорят по-французский. – М.: Высшая школа 1968. – С.73,

7. Назарян А.Г. Идиоматические выражение французского языка. – М.: Высшая школа, 1978. – С.238-239.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. – 131 б.
9. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С.124.
10. Федоров А.И. Лексикографическая характеристика фразеологизмов и идиом, помещенных в словаре//Новосибирск: Наука, 1995. – Т. 1: А-М. – С.6 – 13.
11. Шаховский В. И. Эмотивный компонент значения и методы его описания : учеб. пособие к спецкурсу / В. И. Шаховский. – Волгоград:Изд-во ВГПИ, 1983. – 91 с.. – 118 с.
12. Lehrer A. Semantic fields and lexical structure / A. Lehrer. – Amsterdam : American Elsevier, 1974. – 225 p.
13. https://www.oriens.uz/media/journals/ORIENS_Volume_1_ISSUE_1.pdf.

